

O‘ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASIDAGI AYRIM MUAMMOLAR

Mustaqil tadqiqotchi: Jo‘ramirzayev I.S.

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2024 va 2025 yillar davomida O‘zbekiston tashqi mehnat migratsiyasida aniqlangan asosiy muammolar, statistik ma’lumotlar, inson omili va siyosiy tavsiyalar nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Migratsiyaga ketgan fuqarolarning og‘ir mehnat sharoitlari, majburiy mehnat, huquqlardan mahrum bo‘lish, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishning cheklanganligi xususida va ularning yechimi bo‘yicha tavsiyaviy harakterdagi ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, maqolada IOM, World Bank, ILO, Migration Data Portal va Markaziy Bank kabi xalqaro va milliy manbalarga tayangan holda statistika ma’lumotlar 2024-2025 yillar davrini qamrab oladi.

Kalit so‘zlar: Mehnat migratsiyasi, IOM, World Bank, ILO, Migration Data Portal, Markaziy Bank, remittance, YaIM, “O‘zbekiston-2030” va rekruting kompaniya.

So‘nggi o‘n yilliklarda O‘zbekiston iqtisodiy hayotida tashqi mehnat migratsiyasi muhim omilga aylandi. Migratsiyadagi fuqarolardan kelayotgan pul o‘tkazmalari (remittance) oilaviy daromadlar va milliy valyuta rezervlari uchun muhim manba hisoblanadi. Biroq, yirik pul oqimlari bilan birga mehnat migratsiyasining huquqiy, sog‘liq, ijtimoiy va xavfsizlik bilan bog‘liq noxush holatlar ham yuzaga chiqmoqda.

Xususan, 2024 yilda O‘zbekistonga kelgan pul o‘tkazmalari hajmi sezilarli oshgan bo‘lib, Markaziy Bank hisobotlariga ko‘ra, yil davomida jami o‘tkazmalar rekord darajaga yetgan va bu 2025 yilda ham o‘shishda davom etmoqda.

Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, an’anaviy tarzda O‘zbekistonga kirib kelayotgan pul o‘tkazmalarining eng katta oqimi Rossiya Federatsiyasiga to‘g‘ri kelayotgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda Yevropa va Janubiy Koreya, Turkiya va Qozog‘iston ham muhim qabul qiluvchi mamlakatlarga aylanmoqda. Bu yo‘nalishlarning diversifikatsiyasi migrantlar imkoniyatlarini oshiradi, ammo ularning himoya darajasini faqat rasmiy mexanizmlar orqali ta’minlash zarur bo‘lib qolmoqda.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonga 2025 yilning birinchi 8 oyida 12,1 milliard dollar atrofida chetdan pul mablag‘lari kirib kelgan bo‘lib, ushbu mablag‘larning asosiy qismi migratsiyadagi fuqarolarning jo‘natmalari hisobiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, 2024 yilda migrantlar yuborgan jami mablag‘lar O‘zbekiston YaIMining 14 foiziga teng ekanliginin ko‘rishimiz mumkin. Migratsiyadagi fuqarolardan kelayotgan pul o‘tkazmalarining milliy YaIMdagi yuqori ulushi oilalarning va hududiy iqtisodlarning chet el bilan bog‘lanishiga olib keladi. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, bu turdagi o‘tkazmalar

oilaviy xarajatlar, iste'mol va investitsiyalarning muhim manbai hisoblanadi. Biroq bunday darajada qaramlik ichki mehnat bozorini rivojlantirish va barqaror ish o'rinlari yaratish zaruriyatini chetlab o'tadi[1].

O'zbekistonda joriy holatga ko'ra, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi xorijga chiqmoqchi bo'lgan har bir kishiga qonuniy ish topish imkoniyatini yaratishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa qonuniy yo'l topa olmagan muhojirlar vositachilarga murojaat qilishga majbur bo'lishi va ular orqali noqonuniy migratsiya, ekspluatatsiya, odam savdosi holatlarini yuzaga keltirish holatlariga olib kelmoqda. Fuqarolar farovon hayot izlab, boshqa mamlakatlarga yo'l olishadi, biroq ko'pincha og'ir mehnat sharoitlari, majburiy mehnat, huquqlardan mahrum bo'lish, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishning cheklanganligi kabi muammolarga duch kelishadi.

Olingan ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining sa'y-harakatlariga qaramay, 2023 yilda atigi 38,4 ming kishi (jami chiqib ketgan migrantlarning 16,5 foizi) qonuniy ishga joylashish kanallaridan foydalangan, natijada 141 ta odam savdosi holati qayd etilgan bo'lib, 193 nafar shaxs jabrlangan, bunda o'zbekistonlik migrantlar asosan Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va BAA kabi davlatlarda ekspluatatsiyaga duch kelmoqda[2].

XMTning hisob-kitoblariga ko'ra, 2020 yilda butun dunyo bo'ylab migratsiya yo'nalishlarida

4317 nafar muhojir halok bo'lgan. 2023 yilga kelib bu ko'rsatkich deyarli ikki barobarga oshib, 8565 nafarga yetdi. O'zbekistonga kelsak, mas'ul vazirlik ma'lumotlariga ko'ra, birgina 2020 yilda xorijda yuz bergan baxtsiz hodisalar natijasida halok bo'lgan 200 dan ortiq fuqarolarning jasadlari vatanga qaytarilgan. Migrantlar bilan bog'liq eng fojiali hodisalardan biri 2018 yil 18 yanvar kuni Chimkent-Samara yo'nalishida sodir bo'lgan avtobusdagi yong'in bo'lib, natijada Rossiyaga ishlash uchun ketayotgan 52 nafar O'zbekiston fuqarosi halok bo'ldi. Bundan tashqari, 13 000 o'zbekistonlik fuqarolar AQShga noqonuniy kirishga urinishda qo'lga olinganligi kabi holatlar ham noqonuniy migratsiya muammosining avj olganligini va shoshilinch choralar ko'rish zarurligini ko'rsatmoqda[3].

Bundan tashqari, ko'plab migrantlar rasmiy shartnomalarsiz ishlashi yoki agentliklar orqali noto'g'ri hujjatlar bilan xorijiy davlatga ketishi fuqarolarning shaxsiy xavfsizligiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Jumladan, ularning mehnat huquqlarining buzilishiga, haq to'lanmasligi, ish sharoitlarining xavfli bo'lishi, shuningdek, majburiy mehnat va ekspluatatsiya xavfiga olib keladi. Shu bilan birga, sug'urta yo'qligi, profilaktika xizmatlaridan foydalana olmaslik va ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolar ham yuzaga keladi. Xususan, ortga qaytgan migrantlar orasida reintegratsiya va tibbiy yordamga yuqori ehtiyoj sezilishi kuzatilmoqda.

Migrantlarning mazkur holatga tushishi ko'pincha huquqiy hujjatlar, mehnat shartnomalarining mazmuni va sug'urta imkoniyatlari haqida yetarli ma'lumotga ega emasligi oqibatida yuzaga keladi. Bu ularning xatoliklar bilan harakat qilishiga,

firibgarliklar qurboni bo'lishiga zamin yaratadi. Shuningdek, til va malaka yetishmasligi sababli ko'plab migrantlarni past maoshli sohalarda ishlashga majbur bo'lishmoqda. Xalqaro migratsiya tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistondan xorijiy davlatga borib ishlayotgan

52,7 foiz mehnat muhojirlarining asosiy qismi qurilish sohasida ishlab kelmoqda. Shu bilan birga, malaka yetishmasligi migrantlarni axborot texnologiyalari, tibbiyot, muhandislik kabi yuqori maoshli sohalarda ishga joylashish imkoniyatlaridan ham mahrum qilmoqda[4].

Yuqorida keltirilgan migratsiya siyosatidagi muammolarni bartaraf etish hamda mehnat migratsiyasini yaxshilash bo'yicha "O'zbekiston-2030" Strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlarini sifatli va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida ekspertlar quyidagi choralarni ko'rishni taklif etadi:

Birinchidan, Filippin tajribasidan kelib chiqib, chet elda fuqarolarni ishga joylashtirishda xususiy bandlik agentliklarining ishtirokini kengaytirish maqsadga muvofiq sanaladi. Bundan tashqari, xususiy sektorni jalb etish natijasida fuqarolar o'zlari uchun eng qulay variantlarni tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Bunda xususiy agentliklar shaxs to'g'risida ma'lumotnoma tayyorlash, suhbat bo'yicha maslahatlar va yangi ish sharoitlariga moslashish bo'yicha xizmatlarni taklif qilishlari mumkin, bu esa nomzodlarning muvaffaqiyatli ishga joylashish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

Ikkinchidan, xorijdagi taniqli rekruting kompaniyalarini mamlakatimizga jalb qilish orqali chet elda fuqarolarni ishga joylashtirish va ularning samarali mehnat faoliyatini tashkil etish imkoniyatlarini ko'rib chiqish samarali yechimlardan biri bo'lishi mumkin. Bu esa fuqarolarni xorijda ishga joylashtirish kanallarini diversifikatsiya qilishda muhim qadam hisoblanadi.

Shu sababli, Adecco (Shveysariya), Kelly Services (AQSh), Robert Half (AQSh), Randstad (Niderlandiya), Michael Page (Buyuk Britaniya) va Globagate (Shveysariya) kabi rekruting kompaniyalari nomzodlarni baholash, suhbatlarni tashkil etish va ishga joylashtirish jarayoni davomida qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega bo'lgan tashkilotlarni tashkil etish lozim[5].

Uchinchidan, mehnat muhojirlari uchun Pokiston tajribasiga o'xshash majburiy sug'urta tizimini joriy etish imkoniyatlarini ham yaratish yo'li bilan xorijda ish yo'qotish, kasallik va o'lim bilan bog'liq xavf-xatarlarni kamaytirishga yordam berish mumkin.

Xulosa qilib aytganda migrantlar huquqlarini himoya qilish, malakatlarni o'zaro tan olish va ishga joylashish sohasida hamkorlik mexanizmlarini ishga tushirish, muammolarning eng muhim yechimi hisoblanadi. Bu esa migratsiya oqimlarini samarali boshqarish va jo'natuvchi hamda qabul qiluvchi mamlakatlar mehnat bozorlarining ehtiyojlarini qondirish imkonini berishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar:

1. IOM (International Organization for Migration) - Uzbekistan “Migration Situation Report” (2024–2025) “Migration Data Mapping / Data Gap Analysis”. New York, page-158.
2. World Bank – “Personal remittances, received” and remittancis in Uzbekistan. Journal 2024 y., page-785.
3. ILO “Global Estimates on International Migrant Workers” in central Asia. 2024 y., page-122.
4. <https://kun.uz/kr/news/2025/02/04/mehnat-migratsiyasi-joriy-holat-muammolar-va-takliflar>
5. Migration Data Portal Republic of Uzbekistan / Brief Review. 2024 y., page-458.